



## JINOYAT PROTSESSIDA PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORASI HISOBLANGAN USHLAB TURISHNING TAVSIFI VA ASOSLARI

**Ganiyev Shaxobitdin Xolmatovich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti yuridik fanlar  
kafedrasi katta o'qituvchisi, mayor  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20133949>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 09-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 11-may 2026 yil

### KEY WORDS

*jinoyat, jinoyat protsessi, jinoiy jazo, protsessual majburlov, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, dalillar, shohidlar, uchinchi shaxslar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ushlab turishning tushunchasi va uning jinoyat protsessida shaxsning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, jinoyatlarni tez va to'liq ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi, aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi, qonunni to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash borasida tutgan o'rni, ushlab turishning asoslari hamda uni qonunda belgilangan tartibda qo'llash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Ushlab turish jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy jazo tayinlanmasdan turib uning erkinligini qisqa muddatga cheklashdan iborat protsessual majburlov chorasi hisoblanadi.

Ushlab turish tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlarning xodimlari tomonidan jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan uning jinoiy faoliyatiga barham berish, qochib ketishining va dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishini oldini olishda qo'llaniladigan majburlov xarakteridagi protsessual harakat sifatida tavsiflanadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash borasida ushlab turish oldingi qatorda turadigan protsessual majburlov choralardan biridir. Chunki, ushlab turishni jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham va jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirish mumkin. Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin ushlab turish faqat surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning qaroriga binoan yo'l qo'yilishi jinoyat-protsessual kodeksining 220-moddasida belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

Ushlab turish chorasi qo'llanilgan shaxs jiddiy ravishda huquqlaridan cheklanadi, masalan: erkin harakatlanish, boshqa shaxslar bilan muloqot qilish, shaxsiy mulkini tasarruf (ushlash jarayonida uni shaxsiy tintuv qilinadi) etish erkinligidan mahrum bo'ladi. Shularni hisobga olib aytish kerakki, ushlab turishni faqat haqiqatdan zarur bo'lgan hollarda, ya'ni jinoyatni ochish yoki uni oldini olish uchun qo'llash lozim va qonunda belgilangan asoslar mavjudligida hamda qonun ko'zda tutgan qoidalarga qat'iy rioya qilgan holatlarda qo'llash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ushlab turish qonuniy va asoslantirilgan bo'lishi shart.

An'anaviy tarzda, ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iborat jinoyat-protsessual majburlov chorasi sifatida

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (<http://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

tavsiflanadi. Shuningdek, ushlab turish ham qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etishda ifodalanadigan protsessual majburlov chorasi, ham dalil yig'ishga qaratilgan protsessual harakat sifatida ta'kidlanadi.

Jinoyat protsessida shaxsni ushlab turishning ahamiyati shundan iboratki, birinchidan, gumon qilinuvchi shaxsning jinoyat sodir etishda aybdorlik darajasi aniqlansa uni javobgarlikka tortish imkoniyatini beradi, ikkinchidan esa isbot va dalillarni ishiq izida aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, jinoyat-protsessual majburlov chorasi sifatida ushlab turish surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan ayblov masalasi hali isbotlanmagan davrda qo'llaniladi. Shuning uchun ham jinoyat protsessi ishtirokchilariga ta'sir etuvchi vosita bo'lmish mazkur chora jinoyat protsessini normal yuritilishini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish asoslari bo'lib, jinoyat ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligini yaqqol ko'rsatuvchi faktik ma'lumotlar hisoblanadi.

JPKning 221-moddasida ushlab turish asoslari belgilangan, unga ko'ra quyidagi asoslar mavjud bo'lganda jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs ushlab turilishi mumkinligi ko'zda tutilgan:

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;
- 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa<sup>2</sup>.

Ushbu asoslarning bittasi bo'lganda yoki bir nechtasi aniqlangan holatda ham shaxsni ushlab turish uchun asos hisoblanadi.

Shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa deganda, shaxs jinoyat sodir etayotganida yoki uni sodir etgandan keyin darhol qo'lga tushgan payti hisoblanadi. Bunday holatlarga "jinoyat ustida qo'lga olindi" termini to'la mos keladi, bu tushuncha shaxsning jinoyatga suiqasd qilgan paytida qo'lga tushganidan dalolat beradi. Masalan, o'g'rilik maqsadida xonadon qulfini buzayotganida yoki mansabdor shaxs pora olayotgan vaqtida qo'lga tushgan paytiga aytiladi.

Jinoyatni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa holatlariga esa, shaxs jinoiy qilmishini sodir etib bo'lganidan so'ng voqea joyidan yashirinmoqchi bo'lgan paytda qo'lga tushgan paytini misol keltirish mumkin. Masalan, jinoyat sodir etayotgan shaxs o'zganing qo'lida bo'lgan sumkasini qonunga xilof ravishda tortib olib qochib ketayotgan paytda uchinchi shaxslar tomonidan u qo'lga tushsa. Oddiy qilib aytganda, shaxs jinoyat joyidan qochib ketayotgan paytda ushlanishini ham bunga misol qilib keltirsak bo'ladi.

Ushbu ikkala holatlarda, ya'ni shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushgan faktlari ham baribir sinchkovlik bilan to'liq tekshirilishi lozim. Chunki, shaxs

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (<http://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lg'a tushgan faktlarini xolisona tekshiruvdan o'tkazish, asoslanmagan ushlab turishdan kafolatlanganlik hisoblanadi.

Ushlab turishning ikkinchi asosi hisoblangan jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar deganda, jabrlanuvchining o'zi yoki sodir etilgan jinoyatni yaqqol ustida ko'rib guvohi bo'lgan shaxslar tomonidan uni jinoyatni sodir etganlikda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatgan holatlariga aytiladi.

Shohidlar deb shunday shaxslarga aytiladiki, ular jinoyat sodir etilgan vaqtda voqea joyida yoki uning yaqinida bo'lib, bevosita jinoyat sodir etilishini ko'zi bilan ko'rib kuzatgan shaxslar hisoblanadi.

Shohidlarni jinoyatni sodir etgan shaxs haqida bergan xabarlar va sodir etilgan jinoyatning holati bo'yicha bergan ma'lumotlari to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuv xarakteriga ega bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuv deb, jabrlanuvchi va shohidlarning jinoyat sodir etgan shaxsni tanib olishlari holatiga aytiladi.

Ko'rib chiqilayotgan asoslar bo'yicha ushlab turishning asoslantirilishi ko'p jihatdan shohidlar yetkazgan xabarni to'g'ri baholashga bog'liq bo'ladi. Shohidlar bilan suhbat chog'ida ob'ektiv (yoritilganlik, masofa va boshqa) va sub'ektiv (eshitish, ko'rish qobiliyati va boshqa) holatlarni, ya'ni shohidning to'g'ri idrok etishiga ta'sir ko'rsatuvchi shartlarni, shuningdek uning ish natijasidan manfaatdorlik holatini aniqlash lozim.

Mazkur asoslar bo'yicha ushlab turishning asoslantirilishi, shu jumladan, shohidlarning miqdoridan emas (bittasining o'zi yetarli bo'lishi mumkin), balki ular axborotining aniq va to'g'riligidan kelib chiqadi. Shu sababli barcha holatlarda jinoyat sodir etilishini kuzatgan shaxslardan imkoni boricha qilmishni sodir etish nimadan iboratligi va unga nima sabab bo'lganligini haqida to'la va aniq ma'lumotlar olinishi kerak. Ayniqsa, olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda jabrlanuvchidan olinganlariga ehtiyotkorlik bilan yondoshish lozim, chunki bu ma'lumotlar his-tuyg'ular iztirobi ta'sirida bo'lib u sodir etilgan voqeani baholashda yanglishishi, hatto ma'lumotni buzib ko'rsatishi mumkin. Bu holatlarda asoslanmagan ushlab turishdan xalos bo'lish maqsadida, jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan olingan ma'lumotlarni astoydil tekshirish va ularni boshqa mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan taqqoslash zarur.

Ushlab turish uchun yuqorida ko'rsatilgan uchinchi asos: shaxsning o'zida, kiyimida, yonida yoxud yashash joyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari aniqlanishidir. Aniqlangan izlar ushlab turishning asosi bo'lishi uchun ular birinchidan, sodir etilgan jinoyatga yaqqol tegishli bo'lishi, ikkinchidan, bevosita gumon qilinayotgan shaxsning o'zida, kiyimida, yonida yoki yashash joyida qoldirilgan bo'lishi shart.

Yaqqol qoldirilgan izlar albatta jinoyat sodir etilganligi haqida shohidlik berishi va ularning aniqlanishi esa to'g'ridan-to'g'ri shaxsning jinoyatga bevosita aloqadorligini ko'rsatishi kerak. Masalan, gumon qilinuvchidagi jabrlanuvchi bilan muloqotdan yoki voqea joyida bo'lganligi haqida dalolat beruvchi turli xil shikastlar, jarohatlar, shilinishlar, teri va kiyimdagi boshqa izlar, jinoyat joyidagi qon izlari va turli ashyolardan qolgan izlar, gumon qilinuvchini o'zida, kiyimida, yonida yoki uning yashash joyida topilgan jinoyat qurollari, jinoiy yo'l bilan qo'lg'a kiritilgan buyum va narsalar, shuningdek mazkur shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishiga qaratilgan boshqa izlar bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga bu izlar bevosita gumon qilinuvchining o'zida, yonida, kiyimida, yoki turar joyida aniqlangan bo'lishi shart. "Turar joyi" degan tushuncha nafaqat gumon qilinuvchining

doimiy ro'yhat asosida yashayotgan joyini qamrab oladi, balki u vaqtincha yashab turgan boshqa joylarga ham tegishli hisoblanadi. Bularga qo'shimcha bino, xizmat xonalari, omborxonalar, yer to'la va hakozi bo'lishi mumkin. Shuningdek, jinoyatning yaqqol izlari gumon qilinuvchining nafaqat turar joyida, balki u egallagan boshqa binolarida aniqlanishi ham, ushlab turish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning o'zida, yonida, kiyimida yoki yashash joyida sodir etilgan jinoyatga oid yaqqol izlarning aniqlanishi aniq-ravshan ekanligidan qat'iy nazar har tomonlama va ish yuzasidan yig'ilgan boshqa dalillar bilan tekshirilishi hamda baholanishi zarur. Chunki, amaliyotda shunday hodisalar sodir bo'lganki, unga ko'ra shaxsda sodir etilgan jinoyatga oid yaqqol izlar aniqlanishidan qat'iy nazar, haqiqatda uning jinoyatga aloqasi yo'q bo'lib chiqqan holatlar yuz bergan.

Ushlab turish uchun to'rtinchi asos: shaxsni jinoyatni sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy turar joyi yo'qligi yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa hisoblanadi.

JPKning 221-moddasi uchta bandiga kirmagan, lekin ushlab turish uchun asos sifatida keltirilgan boshqa faktlarning barchasini qonun chiqaruvchi "boshqa ma'lumotlar" tushunchasiga mujassam qilgan. Tabiiyki, qonunda ularni oldindan ko'rib chiqish imkoniyati yo'q, chunki bular turli toifadagi holatlar bo'lishi mumkin. Ba'zida, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni yoki dastlabki tergovni amalga oshiruvchi xodimlar bunday ma'lumotlar ostida shaxsni tavsiflovchilarini (masalan, sudlanganlik holati mavjudligini, shaxsning tajovvuzkor xarakterga egaligini, jinoyat sodir etishga moyilligini) tushunadilar.

Shu o'rinda aytish joizki, "boshqa ma'lumotlar" tushunchasi ostida muayyan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini isbotlovchi har qanday ma'lumotlarni tushunish kerak. Biroq, jinoyatni sodir etishda gumon qilinuvchiga nisbatan "boshqa ma'lumotlar" mavjudligining o'zi ushlab turishni qo'llash uchun asos bo'lavermaydi. Buning uchun quyida keltirilgan uchta talabdan bittasi qo'shimcha shart sifatida bo'lishi kerak:

- shaxs qochishga va yashirinishga qaror qilgan bo'lsa;
- doimiy yashash joyiga ega bo'lmasa;
- shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

Ko'rsatilgan qo'shimcha shartlarga rioya qilmaslik ushlab turishning qonunga xilof ravishda amalga oshirilishiga olib keladi.

Shaxsni ushlab chog'ida immunitet huquqidan foydalanuvchi shaxslar mavjud bo'lib, ular JPKning 223-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, «Deputatlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, sudyalalar va prokurorlar ushlab turilishi hamda ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinishi mumkin emas. Mazkur taqiq JPKning 221-moddasi 1-bandida (shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa) nazarda tutilgan ushlab turish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi<sup>3</sup>».

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (<https://lex.uz/docs/111460>).

Qonunda ko'zda tutilgan ushlab turishning asoslari o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsning jinoyatni sodir etishda gumon qilish asoslarini ifodalaydi. Gumon qilish uchun asoslarning mavjudligi ushlab turishning zaruriy sharti hisoblangani bilan, uni shunchaki o'z-o'zidan qo'llash zaruratini tug'dirmasligi mumkin.

Ushlab turish chorasini (asoslar va shartlar mavjudligida) faqat gumon qilinayotgan shaxsni jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishi, yashirinishi, dalillarni yo'q qilib yuborishini oldini olish maqsadida qo'llash kerak.

Qonunda gumon qilinuvchini ushlab turishning maqsadi, asoslari va shartlari, jinoyat-protsessual faoliyat tizimida haqiqiy tutgan o'rni, vazifalarining aniq belgilanganligi – majburlovning bu chorasini qo'llashni asosli hamda qonuniyligiga muhim zamin yaratadi.

Albatta, ushlab turishni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan barcha xodimlar kasbiy faoliyat yuritayotganlarida ushlab turilayotgan shaxslar bilan muomala qilishning xalqaro standartlarini bilishi, unga rioya qilishlari zarur va shart ekanligini esdan chiqarmasliklari lozim. Shu bilan birga, mazkur harakatni qonunga asoslangan holatda amalga oshirilishi, jinoyatni sodir etgan shaxsqa qarshi yo'naltirilgan bo'lmasligi va faqat ish bo'yicha zaruriyat ekanligidan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim.

Bizning huquqiy davlatimizda har qanday fuqaro o'z huquq va erkinliklariga ega va ular qonun bilan mustahkamlanib qo'yilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 27-moddasida: "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas"<sup>4</sup> deb belgilangan, shuningdek xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normasi hisoblangan BMTning Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasini 9-moddasida ham "Hech kim asossiz hibsga olinishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas"<sup>5</sup>- deb belgilab qo'yilgan. Shu munosabat bilan ushlab turishni har doim juda oqilona va qonunni buzmay amalga oshirish darkor.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ushlab turish – bu juda murakkab protsessual harakat hisoblanadi. Albatta, bu borada mavjud bo'lgan nazariy va amaliy tavsiyalarni bilmaslik yoki ularga rioya etmaslik, ko'p hollarda jinoyat sodir etgan shaxsni ozodlikda qolib yana jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga, qochib ketishi, yashirinishi yoki dalillarni yo'q qilib yuborishiga olib keladi. Shuning uchun ichki ishlar organlari va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarning xodimlari ushlab turishning asoslari va protsessual tartibi haqida bilimlarni puxta egallashlari zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi (<https://lex.uz/docs/7338189>).
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T: Ўзбекистон, 2026. – Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. –T: Ўзбекистон, 2026. – Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. –T: Ўзбекистон, 2026. – Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T: Ўзбекистон, 2026. – Lex.uz
6. Elektron ta'lim resurslari:
  1. <http://www.tsul.uz>
  2. <http://www.norma.uz>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/6445145>).

<sup>5</sup> Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi (<https://lex.uz/docs/7338189>).

3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.lex.uz>
5. <http://www.lawbook.ru>



INNOVATIVE  
ACADEMY